

IJTIMOIIY HIMOYA VA BARQAROR RIVOJLANISH AHOLINING IJTIMOIIY HIMOYASI: YANGI YONDASHUVLAR VA ISLOHOTLAR

Daminov Dilmurod

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti daminovdima74@gmail.com

Esonturdiyeva Shaxlo

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti shaxloesonturdiyeva127@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilishning moliyaviy ko‘rishishlariga izoh beriladi va ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo‘shimcha mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘z: Ijtimoiy himoya yagona reyestri, kam ta‘minlangan oilalar, taraqqiyot strategiyasi

KIRISH

So‘nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini oshirish va qo‘shimcha resurslarni jalb qilish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etish yo‘nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish maqsadida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi joriy qilindi. Ushbu islohotdan keyin kam ta‘minlangan nafaqa oluvchi oilalar soni uch yilda to‘rt barobarga oshib, 1,9 millionga yetdi, kam ta‘minlangan oilalardagi bolalarni parvarishlash uchun to‘lanadigan nafaqa qamrovi kengayib, nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi, mazkur to‘lov muddati 6 oydan 12 oygacha hamda nafaqa miqdori o‘rtacha 1,5 barobarga oshirildi, ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdorlari 3,2 baravarga oshirildi, aholini bandligini ta‘minlashga qaratilgan 20 dan ortiq yangi instrumentlar joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasidagi diqqatga sazovor islohotlardan biri bu 2022-2026-yilarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”ning qabul qilinishi bo‘di desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan hamda ijtimoiy sohasida tizimli islohatlarni izchil davom ettirish va yanada takomillashtirish, aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta‘minlash, davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishda samarali idoralararo muvofiqlashtiruvchi tizimni yaratishga qaratilgan.

Unga ko‘ra:



1. O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

ijtimoiy yordamga muhtoj va ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha oilalar va shaxslarni ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish;

majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayonga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish;

aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish hamda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta‘minlash;

aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta‘minlash; ijtimoiy xizmatlarni aholiga bevosita mahalla darajasida ko‘rsatish amaliyotini joriy etish.

2. O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyas

Umumiy qoidalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Strategiya) aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha bo‘lgan davrda ustuvor yo‘nalishlarni va kompleks chora-tadbirlarni belgilab beradi hamda uning “Yo‘l xarita”si amalga oshirilishi natijasida ko‘zda tutilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish ta‘minlanadi.

2. Strategiya Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg‘armasi tomonidan 2020-yilda tayyorlangan “O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini baholash” natijalari va tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqildi.

3. Strategiya Xalqaro mehnat tashkilotining ijtimoiy himoyaning minimal darajalari bo‘yicha 202-son tavsiyalariga muvofiq, barcha fuqarolar uchun minimal ijtimoiy himoya darajasini kafolatlaydigan tizimni yaratishni nazarda tutadi.

4. Strategiya quyidagi davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy himoya dasturlarini qamrab olgan:

1) Ijtimoiy yordam dasturlari doirasida:

kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash;

kam ta‘minlangan oilalarga bolalar nafaqasini tayinlash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi muhtoj oilalarga moddiy yordam berish;

yoshga doir nafaqalarni tayinlash;



zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqalarni tayinlash;

o'zgarar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan bolaning qonuniy vakiliga parvarishlash nafaqasini tayinlash;

bolalikdan nogironlik nafaqasini (I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga) tayinlash;

nogironligi bo'lgan bolalar nafaqasini (18 yoshgacha) tayinlash;

o'n sakkiz yoshga to'lmagan OIV infeksiyasiga hamda hayot uchun xavfli va surunkali rivojlanadigan kam uchraydigan (orfan) kasallikka chalingan bolalarga nafaqa tayinlash;

boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini tayinlash;

bir martalik dafn etish nafaqasi berish;

bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa (suyunchi puli) berish;

uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha kompensatsiya pul to'lovini tayinlash;

Chernobil AES halokati oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarga imtiyozlar berish;

1941 — 1945-yillardagi urush faxriylari, fashistlar konslagerlarining voyaga yetmagan sobiq mahbuslari va Leningrad shahri qamal qilingan davrda ishlagan fuqarolarga oziq-ovqat mahsulotlari uchun qo'shimcha to'lovni tayinlash;

1941 — 1945-yillardagi urush faxriylari, fashistlar konslagerlarining voyaga yetmagan sobiq mahbuslari va Leningrad shahri qamal qilingan davrda ishlagan fuqarolarga oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechak xaridi uchun kompensatsiya tayinlash;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan pul mukofotini berish;

fuqarolarning ayrim toifalariga shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanish bo'yicha imtiyozlar berish;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kam ta'minlangan oila farzandlarini to'lovdan ozod etish;

kam ta'minlangan oilalar farzandlarini umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsliklar uchun ijara to'lovlaridan ozod etish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida kam ta'minlangan oilalarning farzandlari uchun kiyim-bosh berish;

ayrim fanlarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda kam ta'minlangan oilalar o'quvchilarini ovqatlanish xarajatlaridan ozod etish;



“Temir daftar”ga kiritilgan oilalar, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar hamda “Mehr daftari”ga kiritilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga yordam va ko‘mak ko‘rsatish;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta‘minlash;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanitariya vositalari bilan ta‘minlash;

oilaga tarbiyaga olingan (patronat) har bir yetim bola va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun nafaqa to‘lash;

noturar joylarda istiqomat qilayotgan ayollar va ota-onasidan yoki ularning biridan ayrilgan hamda yolg‘iz onasi, yolg‘iz otasi yoki boshqa shaxslar qaramog‘ida bo‘lgan voyaga yetgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlash;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bir martalik moddiy yordam berish;

2) Ijtimoiy ta‘minot dasturlari doirasida:

yoshga doir pensiyasini tayinlash;

nogironlik pensiyasini tayinlash;

boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini tayinlash;

Chernobil AES halokati oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan shaxslarga pensiya tayinlash;

homiladorlik va tug‘ish nafaqasini tayinlash;

vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasini tayinlash;

ishsizlik nafaqasi tayinlash;

ishdan bo‘shatish nafaqasi tayinlash;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa, nogironlik pensiyasi hamda boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlash;

3) Ijtimoiy xizmatlar dasturlari doirasida:

“Mehribonlik” uylari, bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi bolalar uylarida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish;

“Saxovat” keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar, “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar, “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan bolalar uchun internat uylarida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish;

keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar, urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionatida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish;



Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan ekspertiza xizmatlarini ko'rsatish;

Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun hududiy reabilitatsiya markazlari tomonidan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish;

Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha respublika reabilitatsiya markazi tomonidan xizmat ko'rsatish;

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va hududiy markazlar tomonidan xizmat ko'rsatish;

Ichki ishlar organlarining muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari tomonidan xizmat ko'rsatish;

voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish xizmatlari;

muhtoj shaxslarni protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlash xizmatlari;

uyda tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish;

o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga oziq-ovqat mahsulotlari uchun qo'shimcha to'lov to'lash;

o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni bepul yoki imtiyozli dori-darmonlar bilan ta'minlash;

keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, yakka tartibdagi ijtimoiy xizmatlar dasturini shakllantirish va amalga oshirish;

“Temir daftar”ga kiritilgan oilalar, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar va “Mehr daftari”ga kiritilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga tibbiy, psixologik va boshqa xizmatlarni ko'rsatish;

4) Mehnat bozoridagi faol chora-tadbirlar dasturlari doirasida (keyingi o'rinlarda — MBFCH):

haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish;

davlat maqsadli jamg'armalari (subsidiyalar, grantlar va kredit liniyalari) hisobidan bandlikni rag'batlantirish va tadbirkorlikka jalb etish;

mahalliy mehnat organlari tomonidan ish qidirayotgan hamda ishsiz shaxslarga xizmatlar ko'rsatish;

ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va ish o'rinlarini zaxiraga qo'yish;

ish qidirayotgan hamda ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;



xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida zo‘ravonlikka, majburiy mehnatga va tahqirlanishga duchor bo‘lgan, mehnat va boshqa huquqlari buzilgan, murakkab moliyaviy ahvolga tushib qolgan va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarisiz, mablag‘larsiz qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish hamda ularga moddiy yordam ko‘rsatish;

mehnat migratsiyasida bo‘lgan vaqtda jarohat olishi, baxtsiz hodisaga uchrashi, og‘ir kasallikka chalinishi tufayli tibbiy yordam talab etilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga mehnat migranti mablag‘lari yoki tibbiy sug‘urta hisobidan ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar qiymatini to‘lash imkoni bo‘lmaganda tibbiy xizmat ko‘rsatish;

mehnat migratsiyasida bo‘lgan vaqtda vafot etgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining jasadlarini, shuningdek, xorijda mehnat faoliyati vaqtida mayib bo‘lgan yoki og‘ir jarohat olgan fuqarolarni olib kelish xizmatlarini ko‘rsatish;

ilgari uyushgan holda tanlash doirasida xorijga ishga yuborilgan va borgan mamlakatning qonun hujjatlarini buzishi natijasida chiqarib yuborilgan (deportatsiya qilingan) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini qaytarish, keyinchalik to‘langan mablag‘larni mazkur shaxslar hisobidan qoplash, shuningdek, xorijiy ish beruvchilar tomonidan ishga joylashtirish bo‘yicha kelishilgan sharoitlar bilan ta‘minlanmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini qaytarish;

mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga ketayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini ketish oldidan moslashtirish, kasbga tayyorlash, ularni chet tillarga o‘qitish;

mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarga ayrim xarajatlari uchun kompensatsiya to‘lash;

rivojlangan davlatlarga uyushgan holda tanlash tartibida mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarga “ishchi viza”ni rasmiylashtirish xarajatlarini qoplab berish;

fuqarolarni xorijda uyshgan holda ishga joylashtirishga ko‘maklashish.

3. Moliya vazirligi tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etilgan.

Belgilanganki, Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi faoliyatini moliyalashtirish manbalari bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisoblanadi.

4. Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi hisobidan deb belgilangan:

a) 2022-yil 1-sentabrdan boshlab davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha minimal iste‘mol xarajatlaridan kelib chiqib homiladorlik va tug‘ish nafaqalari to‘lanadi.

Bunda, xodimning ish stajida 1 oygacha bo‘lgan tanaffuslar mavjud bo‘lsa ushbu tanaffuslardan oldingi va keyingi oylar ketma-ket ish stajini hisoblashda qo‘llaniladi;



b) kelgusida davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha beriladigan nafaqalar "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali bosqichma-bosqich to'lanadi.

5. Ijtimoiy himoya:

Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi (A. Inakov) Sog'liqni saqlash vazirligi (B. Musayev), Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi (S. Turdiyev), Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z. Maxkamova) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

2023-yil 1-martga qadar davlat tomonidan kafolatlangan va bepul taqdim etiladigan minimal ijtimoiy xizmatlar ro'yxatini shakllantirsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritgan;

2024-yil 1-iyulga qadar davlat tomonidan kafolatlangan va bepul taqdim etiladigan minimal ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish standartlarini tasdiqladi.

6. Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etilishi munosabati bilan:

2022-yil 1-sentabrdan Moliya vazirligi huzuridagi Ma'muriy binolardan foydalanish boshqarmasi tugatilishi hisobiga 3 ta shtat birligidan iborat Ijtimoiy sug'urta jamg'armasining faoliyatini tashkil etish bo'limi;

budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro apparati shtat birliklari hisobidan 2 ta shtat birligidan iborat Ijtimoiy to'lovlarni "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali amalga oshirish shu'basi;

2022-yil 1-sentabrdan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya bosh boshqarmalari huzurida, ularning umumiy shtat birliklari doirasida 2 ta shtat birligidan iborat Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi mablag'larini boshqarish va Ijtimoiy sug'urta nafaqalari to'lovlarni monitoring qilish bo'limlari tashkil etildi.

7. Axborot yetkazilishi:

O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Moliya vazirligi bilan birgalikda ushbu Farmonning maqsad va vazifalari bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'i orqali aholi o'rtasida muntazam, tizimli va keng ko'lamda yoritib borilishini ta'minlasin.

8. Moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritdi.

9. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib moliya vaziri T.A. Ishmetov belgilandi.



Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklandi.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib boriladigan bo'ldi.

Xulosa. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining yangilanishi aholining hayot darajasini yaxshilashga xizmat qilayotgan muhim jarayonlardan biridir. Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoyaga bo'lgan e'tibor va islohotlar sezilarli darajada. Nafaqalar, moddiy yordamlar va xizmatlarning kengayishi odamlarning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlab, ehtiyojmand oilalarga o'z vaqtida ko'mak berilishiga zamin yaratmoqda. Bu islohotlar davom ettirilsa, kelajakda ijtimoiy himoya tizimi yanada qulay, samarali va aholiga yaqin bo'lgan shaklga ega bo'ladi.

Takliflar:

1-taklif. Haligacha chekka qishloqlardagi ayrim kam ta'minlangan oilalar nazarda chetda qolmoqda. Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun mahalla fuqarolar yig'ini ish faoliyatini nazoratga olish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

2-taklif. Ijtimoiy himoya tizimida yordamning adolatli taqsimlanishi uchun mahallalarda muntazam kuzatuv va uyma-uy o'rganish ishlarini yo'lga qo'yish zarur. Bu orqali ro'yxatdan chetda qolgan, ammo haqiqatan ham yordamga muhtoj oilalarni aniqlash mumkin bo'ladi. Natijada yordam to'g'ri manzilga yetib boradi va tizimning samaradorligi oshadi.

3-taklif. Ijtimoiy himoya dasturlaridan foydalanishni osonlashtirish uchun aholiga yagona tushunarli ma'lumot beruvchi platformani yaratish maqsadga muvofiq. Unda kim qaysi yordamga haqli, qanday hujjatlar kerakligi va murojaat qilish tartibi aniq ko'rsatilsa, odamlar yordam olishda qiynalmaydi. Shuningdek, murojaatlarni onlayn qabul qilish imkoniyatini kengaytirish navbatlarni kamaytirib, xizmatning sifatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 25.07.2022 PF-175-son
2. UNDP. (2021). Human Development Report: Social Protection for Sustainable Development. New York: UNDP.
3. Barqaror rivojlanish jarayonida ijtimoiy himoya tizimlarining o'rni tahlil qilingan. World Bank. (2020). Social Protection and Jobs Global Practice: New Approaches and Reforms. Washington, DC.
4. Yangi islohotlar, ijtimoiy yordam tizimlari va zamonaviy yondashuvlar bayon etilgan.





International Labour Organization (ILO). (2019). World Social Protection Report: Progress and Challenges. Geneva: ILO.

5. Mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimlarining ahvoli va yangilanish yo'nalishlari.

Soliyev, A., & Rasulov, B. (2022). O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlanish. Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti.

6. O'zbekiston tajribasida olib borilayotgan islohotlar haqida.

Barr, N. (2021). The Economics of the Welfare State. Oxford University Press.

7. Y welfare tizimining zamonaviy modeli, islohotlari va iqtisodiy asoslari muhokama qilingan.

8. Ziyodullaev, N., & Ziyodullaeva, M. (2023). FINANCIAL LITERACY, INTERRELATIONSHIP OF POPULATION INCOME AND EXPENDITURE. Science and innovation, 2(B12), 881-887.

9. Urazbekovna, T. K. (2024). ROLE OF PUBLIC POLICY IN CHANGES IN POPULATION INCOME. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(22), 316-321.

